

Maqola turi (Maqola, Filologiya fanlari, Adabiyotlar sharhi)

Muhammad Alining “Mangu quyosh” romanida tarixiy haqiqat va badiiy talqin munosabatining yoritilishi

Usmonova Sharifa Gulamovna  ^{1*}

¹ University Of Economics and Pedagogy; Andijan; O'zbekiston; gulamovna1973@gmail.com.

* Yozishmalar: e-mail: gulamovna1973@gmail.com; Tel.: +998979934989. (171003; Andijon viloyati, Oltinko'l tumani, Mehnat MFY, Do'stlik ko'chasi 45-uy; University Of Economics and Pedagogy; O'zbek va rus tillari kafedrası katta o'qituvchisi; Andijon; O'zbekiston)

Abstrakt

Ushbu maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining “Mangu quyosh” tarixiy romanidagi tarixiy haqiqat va badiiy talqin munosabatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, unda tarixiy roman yozishning o'ziga xos talablari borligi, mustaqillik davrida Alisher Navoiy obrazining yaratilishida muallif tayangan manbalar va badiiy-estetik prinsiplar tahlil qilingan. Maqolada tarixiy shaxslar obrazini yaratishdagi ijodkor mahorati, uning badiiy niyati, tarixiy fakt va materiallarning asardagi o'rni, yozuvchining so'z qo'llashdagi uslubi yuzasidan bahs yuritilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy roman, Alisher Navoiy, obraz, milliy adabiyot, tarixiy haqiqat, manbalar.

Type of the Paper (Article, Philology, Review)

The relationship between historical truth and artistic interpretation in Muhammad Ali's novel the “Eternal sun”

Usmonova Sharifa Gulamovna  ^{1*}

¹ University Of Economics and Pedagogy, Andijan; Uzbekistan; gulamovna1973@gmail.com.

* Correspondence: e-mail: gulamovna1973@gmail.com; Tel.: +998979934989 (171003; Andijan region, Altynkul district, Mehnat MFY, 45, Dostlik street; University Of Economics and Pedagogy; Senior Lecturer of the Department of Uzbek and Russian Languages; Andijan; Uzbekistan)

Abstract

This article examines the relationship between historical truth and fiction in the historical novel "Mangu Quyosh" ("Eternal Sun") by the People's Writer of Uzbekistan Muhammad Ali. It also analyzes the characteristics of the historical novel genre, sources, and the artistic and aesthetic principles that guided the author in creating the character of Alisher Navoi during the period of independence. The work highlights the author's mastery of depicting historical figures, his creative intent, the role of historical facts and materials in the work, and the stylistic features of the language.

Academic Editor: Mirzayev Sarvarbek Avazbekovich

Received: 16.07.2026

Revised: 01.08.2026

Accepted: 13.08.2026

Published: 18.08.2026

Copyright: © 2026 by the authors.

Submitted for possible open access

publication under the terms and

conditions of the [Creative Commons](#)

[Attribution \(CC BY\)](#) license.

Keywords: historical novel, Alisher Navoi, character, national literature, historical truth, sources.

1. Kirish (Introduction)

Tarix - bu faktlar majmuasi emas, balki insoniyatning tugallanmagan suhbatidir. Tarixiy roman esa ana shu suhbatni bugungi kun tiliga tarjima qiluvchi eng mukammal adabiy ko'prikdir. Ko'pincha tarixiy asarlarni shunchaki o'tmish voqealarining badiiy qayta ishlanmasi deb hisoblashadi. Biroq, haqiqiy tarixiy roman - bu shunchaki "kechagi kun" haqidagi hikoya emas, balki o'tmish prizmasi orqali bugungi kunning og'riqli nuqtalariga muammo qo'yish san'atidir.

Mashhur fransuz adibi Jyul Mishle aytganidek: "Tarix - bu tirilishdir". Yozuvchi arxiv changlarida qolib ketgan "ismlar" ortidagi hissiyotlarni to'qima yordamida tiklaydi. Masalan, tarixiy hujjatda podshohning falon urushda g'alaba qozongani yozilsa, romanda o'sha g'alaba kechasida uning ko'nglidan kechgan yolg'izlik tuyg'usi tasvirlanadi. Mana shu nuqta - adabiyotning g'alabasidir. Tarixiy roman muallifi o'quvchini o'sha davrga olib kirib, o'ziga xos oyna tutadi. Biz o'tmishdagi xatolarni ko'rib, bugungi kunimizni tahlil qilamiz. Abdulla Qodiriy "Otkan kunlar" muqaddimasida bejizga "Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlidir" deb yozmagan edi. Bu shunchaki shior emas, balki millatning o'zligini anglash formulasidir. Shunday ekan tarixiy roman o'quvchiga o'sha davrga qaytish, qahramonlar bilan birga og'riqni qaytadan yashab o'tish va eng muhimi - ma'naviy g'alabaga erishish imkonini beradi. Yozuvchi tarixni o'zgartira olmaydi, lekin u o'sha mag'lubiyatlar ichidan millatning ruhan sinmaganini ko'rsatib, bugungi avlodni o'tmish komplekslaridan xalos etishga xizmat qiladi.

"Tarixiy romanlar yozish tendensiyasi istiqlol yillari o'zbek adabiyotida kuzatilgan yirik hodisadir. Yozuvchilar xalqimizning qadim va yaqin tarixini jonlantirish, o'tmishda yashab o'tgan ulug' ajdodlarimiz siymosini yaratish orqali istibdod davrlari jamiyatda yo'qola yozgan milliy o'zlikni shakllantirishga uringanlar" [1].

Alisher Navoiy siymosi mustaqillik davriga qadar folklor va mumtoz adabiyotda ham o'zining tegishli in'ikosini topgan. XXI asrga kelib bu yo'nalish yanada kuchaydi. Ayni shu davrda bevosita mazkur muammoga bag'ishlangan maqola va tadqiqotlarning paydo bo'lgani ham bejiz emas. Zamonaviy o'zbek adabiyotida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligini yangi bosqichga olib chiqqan asarlardan biri - Muhammad Alining 2024-yilda nashr etilgan "Mangu quyosh" romanidir.

Adhambek Alimbekovning qayd qilishicha, Muhammad Ali Alisher Navoiy haqidagi ilk misralarini Oybek va boshqa adiblar asarlari bilan tanishish asnosida hali 14 yoshidayoq, kundalik daftariga yozib qo'ygan ekan [2]. Olim yana quyidagilarni qayd etadi: "Shu paytlarda yosh shoir ijodiy o'rganish ma'nosida Alisher Navoiy g'azallarini ko'p o'qiydi, o'zicha ularning nasriy bayonini amalga oshiradi. Kundalikda Navoiyning o'ndan ortiq g'azallari nasriy bayoni berilgan" [2]. Muhammad Ali kundaligida Balzakning yana bunday fikriga e'tibor beradi: "Tarixga murojaat qilish har bir adib uchun farz va qarz. Negaki, kechagi kun ertangi kun qanday bo'lishini belgilab beradi" [2]. Shu so'zlar isboti o'laroq adib tarixiy asarlar yozishga juda ko'p bora harakat qildi va ularning uddasidan chiqa oldi. Natijada "Ulug' saltanat" tetralogiyasi, "Sarbdorlar" diologiyasi, "Mangu quyosh", "Kleopatra" tarixiy romanlari dunyo yuzini ko'rdi.

2. Materiallar va usullar (Materials and Methods)

O'zbek adabiyotida tarixiy roman janri hamisha milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotirani tiklashning muhim vositasi bo'lib kelgan. Tarixiy mavzuda asar yaratish yozuvchidan nafaqat arxiv hujjatlari bilan ishlashni, balki o'sha davr ruhini his qilishni ham talab etadi. Bu jarayonda eng nozik masala – tarixiy haqiqat (faktlar mustahkamligi) va badiiy talqin (yozuvchining ijodiy tasavvuri) o'rtasidagi muvozanatni saqlashdir. Taniqli yozuvchi Muhammad Alining "Mangu quyosh" romani aynan mana shu munosabatni o'zida yorqin aks ettirgan, so'nggi yillar o'zbek romanchiligining yirik namunalaridan biridir. Ushbu romanda adib Alisher Navoiy obraziga murojaat qiladi. Roman haqida akademik Sh. Sirojiddinovning quyidagi fikrlari alohida e'tiborga molik: "Alisher Navoiy obrazini yaratish yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. Navoiy nafaqat buyuk shoir va davlat arbobi, balki falsafa va madaniyatning tub ildizlariga chuqur singib ketgan hanuz ko'p qirralarini ochishni talab qiladigan buyuk siymodir. Shu bois bu sharif zot timsolida tarixiy, madaniy, falsafiy bilimlar bilan birga o'sha zamonning siyosiy-ijtimoiy konteksti ham aniq aks ettirilishi zarur. Muhammad Ali "Mangu quyosh" romanida aynan shu murakkab ishni uddaladi. U nafaqat Navoiy hayoti va ijodining chuqur psixologik va falsafiy qatlamlarini ochib beradi, balki o'sha davr voqeligini aniq va jonli tarzda tasvirlaydi. Yozuvchi o'z asarida tarixiy haqiqatni badiiy noziklik bilan uyg'unlashtirib, o'quvchiga boy ma'naviy va madaniy merosni taqdim etadi. Bundan tashqari Muhammad Ali Navoiy timsolini ko'plab madaniy va tarixiy stereotiplar orasidan chiqarib, yangi va obyektiv yondashuv bilan tasvirlashga muvaffaq bo'ldi." [3].

"Mangu quyosh" romanida yozuvchi quruq tarixnavislik (xronologiya) yo'lidan bormaydi. Asarda tarixiy voqealar fonida inson taqdiri, jamiyatning ichki ziddiyatlari va millat taqdiri bosh planga olib chiqiladi. Tarixiy haqiqat romanning skeletini (suyagini) tashkil etsa, badiiy talqin uning go'shti va qonidir. Yozuvchi tarixiy manbalarda nomlari keltirilgan shaxslar obrazini yaratishda ularning faqatgina ijtimoiy-siyosiy faoliyatini emas, balki ichki kechinmalari, ziddiyatli o'ylari va insoniy qiyofasini ham badiiy kashf etadi. Bu esa asarda badiiy psixologizm (qahramon ichki dunyosini ochib berish) tamoyillarining kuchayishiga xizmat qilgan. Mustaqillik badiiy adabiyotda tarixiy shaxs fenomenini ro'yi rost badiiy tasvirlash imkonini berdi.

Muhammad Alining "Mangu quyosh" romani tasodifiy ijod mahsuli bo'lmay, adibning uzoq yillik tizimli tayyorgarligi va fundamental izlanishlari natijasidir. Muallifning ushbu mavzu doirasidagi dastlabki konseptual qarashlari "Navoiy va Boyqaro" dramasi o'z ifodasini topgan bo'lib, u mazkur yirik asar uchun o'ziga xos muqaddima vazifasini o'tagan. Yozuvchining shaxsiy e'tirofiga ko'ra, romanning konseptual-tarixiy asosini hamda faktologik materiallar bazasini shakllantirishda taniqli navoiyshunos olim Sh. Sirojiddinovning "Amir Alisher" nomli fundamental tadqiqoti muhim manbaviy asos bo'lib xizmat qilgan.

Mustaqillik davrida adabiyotshunoslik ilmda Alisher Navoiy shaxsining haqqoniy tarixi, hayoti va faoliyati bilan bog'liq jihatlar ilk qo'lyozma manbalar asosida qayta ko'rib chiqildi [4]. Ularni qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlildan o'tkazish orqali XX asrgacha bo'lgan davrda yaratilgan manbalardagi ma'lumotlarning asl ma'lumotlardan farqi ko'rsatib berildi, Navoiy hayoti va faoliyatining noma'lum tomonlari oydinlashtirildi, chalkash o'rinlari tuzatildi. Bu kabi tadqiqotlar shoir siymosi haqqoniy, tarixiy fakt va voqelikka asoslangan holda yoritilgani, Navoiyni ijodkorlar va oddiy kitobxon qalbiga yanada yaqinlashtirgani bilan ahamiyatlidir.

Zamonaviy adabiy jarayon ko'pincha an'anaga tayanadi. Binobarin, millat poetik tafakkurining Alisher Navoiyni anglash darajasi an'ana va yangilik, obrazning tarixiy asoslari, badiiy mahorat va ijodiy individuallik kabi masalalar bilan bog'lanadi.

Roman janrining poetik tabiatini belgilovchi va asar ssenariysini harakatga keltiruvchi bosh omil uning murakkab obrazlar tizimidir. Romandagi personajlar tizimini ilmiy

jihatdan tasniflash nafaqat muallifning badiiy niyatini anglash, balki hozirgi o'zbek romanchiligida epik tafakkur va xarakterlar evolyutsiyasini aniqlashda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi "Mangu quyosh" romani obrazlarining tarixiy-nazariy, struktural va zamonaviy metodologik jihatlarini yaxlit tizim sifatida tahlil qilishdan iborat.

Sh.M.Mirziyoyev aytganidek, "Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mam-lakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu mer-osni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak"[5].

"Ma'lumki, tarixiy asarda yozuvchi badiiy to'qimadan foydalanishi mumkin. Faqat badiiy to'qima tarixiy voqea va faktlarga soya solmasligi, aksincha, tarixiy haqiqatni to'ldirishi lozim. To'qima timsollar orqali yozuvchi tarix voqealarini to'ldiradi, uni bugungi kun kitobxonlariga tushunarli tarzda yetib borishini ta'minlaydi"[6].

Tarixiy obraz yaratishdagi murakkabliklar shundaki, muallif mavzuni o'tmishdan olar ekan, uni shunchaki qayta bayon qilmaydi. Tarixiy asar muallifdan hujjatlar bilan ish-lash salohiyati, ifodalamoqchi bo'lgan shaxsiyatlarga doir barcha manbalarni o'rganish mashaqqati, o'tmishda sodir bo'lgan hodisalar fonida bosh g'oyani namoyon eta olish iqtidori, badiiy niyatining obrazlar vositasida anglata bilish kuchini talab etadi. Yangi O'zbekistonning bugungi taraqqiyotida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ilmiy sohalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan yoshlarni ajdodlar merosi bilan chuqur tanishtirishda badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. "Adabiyot — xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan ku-chidan foydalanish kerak [7].

Roman inson va makon, shaxs va jamiyat munosabatlarini eng dinamik xronotop (vaqt va maydon) o'lchamlarida aks ettiruvchi yirik epik janrdir. Muhammad Alining "Mangu quyosh" romanida janrning imkoniyatlari kengayib, tarixiy shaxslarning ichki va tashqi olami falsafiy muvozanatda ko'rsatiladi. XIX asr g'arb va rus realizmida ijtimoiy muhit personaj xarakterini to'liq shakllantirgan bo'lsa, ushbu XXI asr o'zbek romanida qahramonlar faqat ijtimoiy tip sifatida qolmay, balki milliy-falsafiy ruh tashuvchilari si-fatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy statistik tahlillar va kitobxonlar o'rtasidagi so'rov-nomalar tarixiy mavzudagi yirik polotnolarga bo'lgan qiziqish hamon juda yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Badiiy adabiyot – hayotning in'ikosi. Bu aksiomani keltirishdan maqsad shuki, yuqorida aytilgan noo'rin mulohazalarning paydo bo'lishi, ularning badiiy adabiyotga ko'chib o'tishi ham, aslida, ilmiy doiralardagi ayrim nojoiz mulohazalarning aks-sadolari edi. O'z vaqtida akademik A.Mirzoyev Navoiy shaxsining badiiy talqiniga davr mafkurasi ko'rsatgan ta'sirning oqibatlarini ixcham va haqqoniy ko'rsatib bergan: "Ushbu noxolis iddaolar badiiy adabiyotga ham ta'sir qildi. Oybek "Navoiy" romanida Navoiy va Binoiy o'rtasidagi buzib ko'rsatilgan munosabatlar tasviridan chetda qola olmadi"[8]. Bunga qo'shimcha sifatida aytish mumkinki, ayni hodisa Mirkarim Osim, Uyg'un va Izzat Sulton asarlarida ham qisman namoyon bo'lgan. Umuman, XX asr adabiyotida yuzaga kelgan Navoiy obraziga oid badiiy tasvirlar uchun mafkura tazyiqi bilan tarixiy faktlarni buzib talqin etish hodisasi xos.

Ta'kidlash joizki, tarixiy siymolarning badiiy talqini muammosi jahon adabiyot-shunosligining muhim ilmiy muammolari sirasiga kiradi. Faqat yozuvchi va shoirlarning o'ziga bag'ishlangan ilmiy ishlar hajmini bor qamrovi bilan tasavvur qilish ham oson emas. Bu jarayonda turli janr imkoniyatlarining o'rni masalasi esa alohida ahamiyatga molik.

3. Natijalar (Results)

Tarixiy mavzu–zamonaviy adabiy-estetik ehtiyoj mahsuli. Badiiy adabiyotning bosh vazifasi, odam va olam haqidagi haqiqatlarning badiiy ifodasini yaratishdan iborat bo'lib, tarixiy mavzu mana shu silsilaning tarkibiy bo'lagi hisoblanadi. "...tarixiy temaga qo'l urgan yozuvchi o'tmish hayotdan bugungi hayotimizga bog'liq, aniqrog'i, hayotning barpo bo'lishiga xizmat qilgan tomonlariga nazar tashlaydi. Tarixni yaratishda yozuvchi yoki san'atkorning realistik quvvati bugungi hayotning tarixdagi ildizini aniq ko'ra bilishda va haqqoniy aks ettirishda namoyon bo'ladi. Zotan, tarixning bugungi hayot tasdiqlaydigan tomoni, tarixiy davrning ilg'or tendensiyalari – go'zalliklaridir"[9]. Adabiyot nima uchun yaratiladi, badiiy asarni yozish va u bilan boshqa odamlarning tanishishi nima uchun kerak degan savollarga javob qanday bo'lsa, nazarimizda, "tarixiy mavzu nima uchun tanlanadi" degan savolga ham shunga yaqin javob berilishi zarur, faqat bunda ayrim o'ziga xosliklarni nazardan qochirmaslik lozim.

Tarixiy mavzudagi asarning yuzaga kelishi qadimdan adabiyotshunoslikning e'tiborida bo'lgan. Bu masala Aristotelning "Poetika"sidayoq kun tartibiga qo'yilgan edi: "...tarixchi va shoir bir-biridan biri vazn – nazmda, boshqasi esa nasrda yozishi bilan farqlanmaydi, (Axir Gerodot asarlarini ham she'rga solish mumkin, biroq uning asarlari xoh nazm, xoh nasrda bo'lsin, baribir tarixligicha qolaveradi). Tarixchi va shoir shu bilan tafovutlanadiki, ularning biri haqiqatan bo'lgan, ikkinchisi esa bo'lishi mumkin bo'lgan voqea haqida so'zlaydi. Shuning uchun poeziya tarixga qaraganda falsafiyroq va jiddiyroqdir: poeziya ko'proq umumiy, tarix esa alohida voqealarni tasvirlaydi. Poeziyada qandaydir xarakter ehtimol yo zaruriyat tufayli bunday yoki unday so'zlashi, harakat qilishi kerak. Mana shu umumlashuv deyiladi"[10]. Aristotelning xarakterning ehtimol yoki zaruriyat tufayli so'zlashi haqidagi qaydi tarixiy prototipning obrazga aylanish jarayoniga ham bevosita daxldor. Ya'ni ijodkor qahramonning tarixiy roli va u bilan bog'liq real voqelikni qabul qilib, uni poeziya shaklida taqdim etishi kerak. Ijodkor tarixiy mavzuga qo'l urar ekan prototipdan obrazgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tishi, ham tarixiy haqqoniyat, ham o'z ijodiy konsepsiyasini yuzaga chiqarish imkonini beruvchi oraliqni topishi kerak. Badiiy umumlashmalarni tarixiy voqelikni buzmaganda holda taqdim etishni uddalashi zarur.

Zamonaviy adabiyotda tarixiy mavzuga murojaat, tarixiy shaxslar badiiy obrazini yaratish jarayonining zamirida ham, aslida, qadriyatlar falsafasining tabiiy mantig'i va idealga intilish ilinji yotadi. Mustaqillik davri adabiyotida Navoiy shaxsiyati butun bir jamiyatga ma'naviy mayoq sifatida taqdim etilganida buning isbotini ko'rish mumkin.

O'zbek adabiyotshunosligi ham adabiyotda tarixiy mavzuga murojaat, tarixni badiiy gavdalantrish masalalari tadqiqiga jiddiy e'tibor qaratgan. Jumladan, akademik Izzat Sultonning kuzatishlari bu borada alohida o'rin tutadi: "tarix adabiyotni tushuntirib bergani kabi, adabiyotning o'zi ham xalq hayotini tushuntirib beradi"[11]. Olimning ta'kidlashicha, bunda yozuvchining tasvirlash tamoyiliga ayrim shartlar qo'yiladi: "muammolar muayyan tarixiy sharoit bilan bog'liq holda qanchalik chuqur yoritilsa, asarning qimmatli shunchalik baland bo'ladi"[11]. Tabiiyki, bu jarayonda tarixiy mavzuning tasviri ham adabiyotning umumiy qonuniyatlaridan tashqarida qolmaydi: "Yozuvchi muayyan tarixiy davr va sharoitning mahsuli bo'lgan insonni tekshiradi, uning ruhiy holatlariga kiradi, ichki dunyosi haqida bizga aniq va ravshan tasavvur beradi. Bu vazifani badiiy adabiyot obraz yaratish yo'li bilan bajaradi. Obraz – insonning ozmi-ko'pmi batafsil tasviri bo'lib, u hayotdagi odamning jo'n nusxasi emas, balki yozuvchining ma'lum davr va sharoitda yashovchi inson haqidagi tasavvurining ifodasidir"[11].

4. Natijalarni muhokama qilish (Discussion)

Adabiyotshunos olim Islomjon Yoqubovning quyidagi fikrlarini keltirishni lozim topdik: "Endilikda o'zbek romanlarini istiqloq mafkurasi talablari asosida milliy adabiyotimiz an'analari va jahon romanchiligi tajribalariga tayanib keng ko'lamda tadqiq etish imkoni yuzaga kelganligi kishini quvontiradi. B.G. Belinskiy romanni "zamonaning epopeyasi", — deb baholaganida mazkur janrning mohiyatan tarixiylikka moyilligini nazarda tutgan edi. Illo romanda yaxlit tarzda shakllangan tugal hayot va shaxs konsepsiyasi — inson va insoniyat taqdiri ifodalanishi lozim".

Akademik N. Karimovning tarixiy mavzuga yondashuvi esa ham adib, ham olim nuqtayi nazaridan amalga oshgani bilan e'tiborga molik. Olim Abdulla Qodiriy haqida mulohaza bildirar ekan, uning buyuk xizmatlaridan biri sifatida XX asr adabiyotiga "tarixiy davr va tarixiy muhit tasvirini olib kirgani"ni [12] qayd etadi. Olimning "XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari va milliy istiqloq mafkurasi" tadqiqotida ham tarixiy mavzuning ayrim qirralari Cho'lpon, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Hamid Olimjon, Mirtemir, Usmon Nosir singari adiblar misolida izohlab berilgan [12]. U. Normatov tadqiqotlarida ham tarix va tarixiy shaxslarga oid muammo va mavzularning o'ziga xos tadqiqi ko'zga tashlanadi [13]. Q. Yo'ldosh tadqiqotlarining katta qismi mustaqillik davri adabiyoti namunalari bag'ishlangan bo'lib, ularda tarix va tarixiy shaxsning badiiy talqinlaridagi o'ziga xosliklar teran tahlillarini topgan [14].

Qayd etish lozimki, tarixiy siymolar hayoti va ijodi ijodkorlarning ko'pi uchun sevimli mavzu. Ayniqsa, Alisher Navoiy siymosi haqida qalam tebratganlardan ko'ra, bu haqda yozmagan ijodkorlarni sanash osonroq. Alohida tarixiy asarlarda o'sha davr va alohida shaxs timsolida (masalan, Alisher Navoiy siymosida) vatanga, millatga fidoyilik, umuminsoniy tuyg'ular tasviri ustuvorlik qiladi. Hatto Husayn Boyqaro bilan do'stlik munosabatlari tasvirlarida ham mualliflar bu tuyg'ularning yurt va vatanga muhabbat bilan eshligi, yaxlitligini urg'ulashadi. Ushbu jarayondagi yuksak axloqiy-ma'naviy sifatlar bilan tarixiy fakt va haqiqatlar o'rtasidagi tabiiy uyg'unlik Alisher Navoiy siymosining go'zal va salobatli obrazlarini paydo qildi.

Badiiy adabiyotda tarixiy shaxs tasviri bir necha alohida xosliklarga ega. Tarixiy shaxs tasviridagi o'ziga xoslikning asosi shundaki, unda mavzu aniq va uning qamrov, chegarasi ham taxminan belgili, ammo "aniqlik" va "chegaralarning belgisi" ekanligiga qaramay, uning butun hududini tasavvur qilish imkonsiz. Ayni paytda, aniqlik va chegaralanganlik ijodkorni o'z izmida tutib turadi.

Zamonaviy adabiyotda tarixiy material va prototipni badiiy voqelik — obrazga aylantirish jarayoni bir necha jihatlariga tayanadi. Bu jarayonda tarixiylikni ta'minlaydigan eng muhim omillardan biri sifatida yozuvchining tili, uning qahramonlari tilidagi ifodasi ayrim o'rin tutadi. Inson nutqi esa o'zi yashab turgan ijtimoiy-ma'naviy muhit bilan chambarchas bog'liqdir.

Qahramon nutqi tarixiy muhit, tarixiy sharoitdagi holatni tasvirlash va tasdiqlash uchun ko'proq xizmat qiladi. Ayni paytda u qahramonni zamonamiz bilan yaqinlashtirishga xizmat qilishi mumkin. Tarixiy asarning zamonaviyligi, ehtimol, bir jihatdan ayni mana shu nuqtalarga ham bog'liq. "Badiiy obrazni yaratish jarayoni dastlab, materiallarning qat'iy, saralanishi demakdir: san'atkor tasvirlanayotgan obrazning eng xarakterli jihatlarini oladi, barcha tasodifiy narsalardan voz kechadi, u yoki bu qirralarini to'liq yorqinlashtirganiga qadar yiriklashtirish yoki o'tkirlashtirish hisobiga rivojlantirib boradi" [15]. Mana shu muhim talablar sirasida inson, aniqrog'i, qahramon nutqi ham mavjudligini ta'kidlash zarur.

Bugungi kunda Navoiy yashagan tarixiy davr, adabiy muhitning haqqoniy tasviri tarixiy shaxs tasviridagi talqin muammosini o'rganish ehtiyoji tug'ildi. Bu davr ko'plab tarixiy shaxslar hayotiga oid mavzularni kengroq miqyoslarda mushohada qilish imkonini berdi. Xususan, bu davrda hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodiga e'tibor

kuchaydi. Navoiy insonparvarlik g'oyalari targ'ibotchisi bo'lish bilan birga, ularni hayotga tatbiq etishga intilgan faol va jasur inson edi. Binobarin, uning tengsiz shaxsiyati, o'zi yaratgan asarlaridagi g'oyalar bilan uyg'unlashib shoirning hayotlik davridanoq tarixiy-badiiy asarlarning qahramoniga aylandi.

Navoiy va bugungi kun o'rtasida ancha vaqt o'tgani til bobida turli to'siqlarni yuzaga keltirdi. Navoiyning tili bugungi kitobxon uchun "og'irlik qilishi" ham sir emas. Lekin tarixiy mavzudagi zamonaviy asarda til faktori, qahramon nutqi uning tarixiy muhit, tarixiy sharoitdagi holatini tasvirlash va tasdiqlash uchun ko'proq xizmat qiladi. Ayni paytda u qahramonni bizning zamonamiz bilan ham yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Tarixiy asarning zamonaviyligi, ehtimol, bir jihatdan ayni mana shu nuqtalarga ham bog'liq. "Badiiy obrazni yaratish jarayoni, dastlab, materiallarning qat'iy saralanishi demakdir: san'atkor tasvirlanayotgan obrazning eng xarakterli jihatlarini oladi, barcha tasodifiy narsalardan voz kechadi, u yoki bu qirralarini to'liq yorqinlashtirganiga qadar yiriklashtirish yoki o'tkirlashtirish hisobiga rivojlantirib boradi"[15]. Har qanday yozuvchi tasvir davomida nutqning funksional-mantiqiy tiplarga murojaat qilib boradi. Ular ko'proq tavsif, hikoyalash, mulohaza shakllarida namoyon bo'lishi yuqorida ham qayd etdik. Ayni mana shu shakllar adabiy qahramon va u haqdagi tasavvurlarning to'liq yoki aksincha bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin

Tarixiy janrdagi asarlar poetikasini tashkil etuvchi uchta tayanch ustun mavjud: fakt - arxiv ma'lumotlarida muhrlangan birlamchi axborot; to'qima - yozuvchi tasavvuri mahsuli bo'lgan syujet elementlari; rekonstruksiya - davr muhitini estetik va ilmiy mezonlar asosida qayta modellashtirish usullari yig'indisidir. Ushbu uchlik asar tarkibida o'zaro muvozanatni saqlaydi: fakt asarga hujjatli zamin bersa, to'qima uning jozibasi va kompozitsion izchilligini ta'minlaydi, rekonstruksiya esa o'sha davrning lisoniy xususiyatlari, urf-odatlar va ijtimoiy psixologiyasini jonlantiradi. Aytaylik, adib real shaxsning tarixiy sayohatini asos qilib oladi (fakt), yo'ldagi uchrashuvlar hamda suhbatlarni ijodiy xayol yordamida shakllantiradi (to'qima), qahramonlar libosi, marosimlar va makon tasvirini esa davrga moslab tiklaydi (rekonstruksiya).

5. Xulosalar (Conclusions)

Xulosa qilib aytganda, tarixiy roman - bu o'tmishning shunchaki nusxasi emas, balki uning qayta tug'ilishidir. U tarixiy haqiqat bilan badiiy tafakkur to'qnashgan nuqtada paydo bo'ladi. Ushbu janr tirik ekan, insoniyat o'z ildizlarini unutmaydi, zero ildizini bilmaydigan daraxtning esa shamolda omon qolishi qiyin. Tarixiy asarlar bizga kim bo'lganimizni eslatib, kim bo'lishimiz kerakligi haqida yo'l ko'rsatuvchi mayoqdir.

Tarixiy romanda muallif tarixiy shaxs konsepsiyasini asosan (bosh) qahramon tim-solida ilgari suradi...Shu tarixiy shaxs vositasida zamon va makonni o'rganadi. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, falsafiy qarashlarini ilgari suradi. Demak, tarixiy asarni baholashda o'tmishning qay darajada haqqoniy jonlantirilganligi emas, balki mavjud voqelik, tarixiy shaxs qay tarzda tafakkur qilingani hisobga olinadi[16].

Mualliflar haqida ma'lumot:

Usmonova Sharifa Gulamovna. ORCID ID: : <https://orcid.org/0009-0001-4468-303X>;
E-mail: gulamovna1973@gmail.com, "University of Economics and Pedagogy" NOTM, O'zbek va rus tillari kafedrasida katta o'qituvchisi, O'zbekiston, 171003, Andijon viloyati, Oltinko'l tumani, Mehnat MFY, Do'stlik ko'chasi 45-uy, Tel.: +998979934989 (Yozishmalar uchun mas'ul muallif.)

About the authors:

Usmonova Sharifa Gulamovna. ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0001-4468-303X>;

E-mail: gulamovna1973@gmail.com, Senior Lecturer of the Department of Uzbek and Russian Languages, "University of economics and pedagogy", Uzbekistan, 171003, Andijan region, Altynkul district, Mehnat MFY, 45, Dostlik street, Tel.: +998979934989 (Author responsible for correspondence.)

References

- [1] Quronov.S. Romanda inson .-T.:Ilmiy bitiklar, 2024.- 76 b
- [2] Алимбеков А. Юлдузнинг беш қирраси. – Тошкент: О'qituvchi нашриёт матбаа уйи, . – Б.19.
- [3] Sirojiddinov.Sh. Tarixiy haqiqat va badiiy tafakkur chorrahasida."Jadid" gazetasi 2025-yil 25-avgust 35(87)
- [4] Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типология, текстология таҳлили. – Тошкент: Akademnashr, 2011.
- [5] Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent. "O'zbekiston"-2018. 138-b.
- [6] Тўйчиев А.Х. Ўзбек насрида жадид образи талқини. Филол. фан. номз. дис. –Тошкент: 2000. –68 б
- [7] Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-may kuni Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida tashkil etilgan "Adiblar xiyoboni" ochilish marosimida so'zlagan nutqi. Manba: president.uz
- [8] Мирзоев А. Камал ад-Дин Бинаи. – М.: Наука, 1976. – С.363.
- [9] Қўшжонов М. Адабиётда эстетик категориялар. Адабиёт назарияси. Икки томлик. 2-жилд. Адабий жараён. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.163.
- [10] Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б.12.
- [11] Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – B.14.
- [12] Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Биринчи китоб – Тошкент, O'ZBEKISTON, 2008. – Б.169.
- [13] Норматов У. Ижодкорнинг ҳароратли сўзи. Адабий-танқидий мақолалар, эссе, хотира ва суҳбатлар. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015.
- [14] Йўлдош Қозоқбой. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б.402-416; 441-454; шу муаллиф. Моҳият реаллиги ифодаси. – // Асад Дилмурод. Паҳлавон Муҳаммад. Роман. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б.417-431.
- [15] Введение в литературоведение. Под общей редакцией Л.М.Крупчанова. – М.: ОНИКС. 2009. – С.40
- [16] Quronov.S .-T.:Ilmiy bitiklar, 2024 112-b.

Nashriyot qaydi: Ushbu jurnalda chop etilgan barcha materiallarda bayon qilingan fikrlar, qarashlar va ma'lumotlar faqat muallif(lar) va materialni taqdim etgan shaxs(lar)ga tegishli bo'lib, jurnal tahririyati yoki muharrir(lar)ning rasmiy nuqtai nazarini ifoda etmaydi. JEP (The Journal of Economics and Pedagogy) hamda uning muharrir(lari) mazkur nashrda keltirilgan g'oyalar, usullar, ko'rsatmalar yoki mahsulotlardan foydalanish natijasida insonlar yoki mol-mulkka yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

Disclaimer/Publisher's Note: The statements, opinions and data contained in all publications are solely those of the individual author(s) and contributor(s) and not of JEP and/or the editor(s). JEP (The Journal of Economics and Pedagogy) and/or the editor(s) disclaim responsibility for any injury to people or property resulting from any ideas, methods, instructions or products referred to in the content.